

O'ZBEKISTON TARIX FANINI O'RGANISHDA BAYNALMINAL MARKAZLARNING AHAMIYATI

Boltaboyev Yursunali Mamadaliyevich
Oltiariq tuman 2-sон kasb hunar maktabi tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada tarix fanining davlashtirilishi va nima sababdan tarix davrlarga bo'lib o'rganilishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Moddiy, ma'naviy, ibtidoiy jamoa, komunistik, milodiy, davrlar, ibtidoiy to'da, matriarchy, patriarchat, urug'chilik.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonimiz tarixini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa o'sib kelayotgan yosh avlodni tariximizni chuqurroq o'rganish imkonini bermoqda. Tariximizdan faxrlanish va xulosa chiqarish imkoniyatlarini ham taqdim etmoqda. Mirziyoyev Sh.

O'zbekiston tarixini yoritishning nazariy-metodologik asoslari. Vatan tarixini yoritishda nazariy-metodologik asoslarni bilish katta ahamiyatga ega. Ilmiylik, xolislik, tarixiylik metodlari tarixni yoritishning asosiy kaliti hisoblanadi. Birinchidan, yaratilgan o'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi konsepsiysi asosida tarixni davrlarga bo'lish va ularni chuqur tahlil qilish lozim. Eng asosiy vazifalardan yana biri – mustaqillik davrida yaratilgan yangi tadqiqotlar asosida ob'yektiv tarixni o'rgatishni tashkil qilishdir.

Ilmiylik bilan bir qatorda xolislik turadi. Bunda tahlil qilinayotgan har bir tarixiy voqeа-hodisalarни xolis, haqqoniy ravishda o'rganish yoki tarixnavisning xohish-irodasidan tashqarida, voqeа-hodisalar qanday sodir bo'lgan bo'lsa, shundaligicha yoritish ko'zda tutiladi. Har bir tarix yozuvchi kishi shaxs sifatida o'zining fikri-mulohazalari, idroki va boshqa his-tuyg'ular orqali atrofni o'rab turuvchi muhit bilan uzviy ravishda bog'liq. Bu bog'liqlik unga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Xolislik talab qiladigan qoidalar shundan iboratki, ushbu yo'nalishda tarixiy-madaniy taraqqiyotni (tarixning turli davrlarida) o'rganish jarayonida bo'lib o'tgan yoki shu taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan jamiki voqeа-hodisalarни hech bir o'zgarishlarsiz, qanday bo'lib o'tgan bo'lsa, o'sha holatda talqin va tahlil etish, tekshirish va xulosalar chiqarib yaxlit holga keltirish o'ta muhimdir. Bu holatda aniq manbaviy asoslarga tayanish, tarixiy jarayonlarning o'zaro chambarchas bog'liqligini asoslash lozim bo'ladi. Bu jarayonda hududlar o'rtasidagi rivojlanish jarayonlarini o'zaro solishtirish, qiyoslash va taqqoslash faqat ijobjiy natijalar berishi tabiiy holdir.

O'zbekiston tarixini o'rganishning uslubiy asoslaridan yana biri — bu voqeа va hodisalarни dialektik tarzda o'rganishdir. Dialektika olam yagona va yaxlit, unda sodir bo'ladigan hodisalar, voqealar umumiy va o'zaro bog'lanishda, uzlusiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo'ladi, deb ta'lim beradi. Bu uslub O'zbekiston tarixini o'zlashtirishda uni to'laligicha, voqeа-hodisalarни bir-biri bilan bog'liqlikda, ayrim

tarixiy voqelikni o'rgatuvchi fanlarni ham bir butunlikda, uning bo'laklarini ajratib olmaslik va voqeа-hodisalarni doimo o'zgarishda, rivojlanishda o'rganishni taqozo qiladi. Biror bir davr haqida fikr-mulohaza yuritilayotgan bo'lsa, ana shu davrning o'ziga xos xususiyatlarini anglab olib, uni ko'rsatishni talab qiladi. Dialektik uslubga asoslanib, tarixiy jarayonni umumiylig va alohidalik qoidalardan kelib chiqqan holda tushunish lozim.

Dialektik uslub O'zbekiston tarixini avvalo O'rta Osiyo, qolaversa, jahon xalqlari tarixi bilan bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Chunki mavjud bo'lgan har bir xalq, millat yoki elat tarixi faqat o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib tursa-da, butun insoniyat taraqqiyoti tarixi bilan umumiy bog'lanishdadir. Haqiqatdan ham, o'zbek xalqining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi jahon tarixi taraqqiyotining ajralmas qismidir. Eng qadimgi davrlardan boshlab yaqin o'tmishga qadar O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Eron, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston kabi hududlar o'rtasida yagona iqtisodiy va madaniy makon mavjud edi. O'zbekiston tarixini o'rganishda tarixiylik uslubi ham alohida o'rin egallaydi. Bu uslub tarix jarayonida sodir bo'lgan voqeа-hodisalarni o'rganishda ketma-ketlikni talab qiladi. Bir voqeа-hodisa bilan boshqasini sabab-oqibatli bog'lanishi ham ko'rsatiladi. Tarixiylik voqeа-hodisalarni qay tarzda sodir bo'lganligini, jamiyat rivojlanishida ayrim shaxslar va ularning roli to'g'risida to'g'ri, haqqoniy fikr yuritishga o'rgatadi.

Tarixiylik uslubi xalqning o'tmishiga, hozirgi zamoni va kelajagiga yagona tarixiy jarayon sifatida o'tmish hozirgi zamonnini tayyorlaydi, hozirgi zamona kelajakni yaratadi, degan taraqqiyot qonuni asosida qarashni talab qiladi. Bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlarni, ajdodlarimiz qoldirgan ulkan merosni qanchalik chuqur va har tomonlama o'rgansak, anglab yetsak hamda keng targ'ib etsak, hozirgi zamonnini shunchalik mukammal tushunib, kelajakni yorqin tasavvur etamiz.

Tarix fani ijtimoiy taraqqiyot va o'tmishga oid har xil voqeа hodisalarning izchil rivojlanishi, ularning qachon, qayerda, qanday holatda yuz berganligi, insoniyatning paydo bo'lishi va uning tadrijiy evolutsion rivojlanish jarayoni va boshqalarni o'rganadi. Shuningdek. O'zbekiston tarixi umumjahon-insoniyat tarixinining ajralmas qismi hisoblanib, u olamshumul voqeliklarga juda boy. O'zbekiston tarixi fani mana shu voqeliklarni boshidan kechirgan qadim va yaqin ajdodlarimizning hayoti qanday bo'lganligi, jahon tarixi taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini xolisona va haqqoniy o'rganadi.

O'zbekistonning eng yangi tarixi fani boshqa ijtimoiy va tabiat fanlaridan farqli o'laroq mustaqil fan hisoblanadi. Shuningdek, u barcha fanlar orasida alohida o'z o'rni va mavqeyiga ega. U barcha fanlar tarixini ham o'z ichiga olgan holda ularning rivojiga katta ta'sir etadi. Bu uning o'rganish predmeti va ob'yekti hamda vazifasida to'la namoyon bo'lmos'hish kerak. Tarix fani o'z xususiyatiga ko'ra, birinchidan, o'zining butun diqqat e'tiborini faqat yaqin o'tmishga qaratadi, undan saboq beradi, xulosa chiqaradi, o'tgan davrning hayot tarzi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy jarayonlarini o'rganadi.

Ikkinchidan, O'zbekistonning eng yangi tarixi fani boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan ancha aniq fandir. U matematika usulidan ham keng foydalanadi. Tarixiy voqeа va hodisalar qat'iy aniqlikda, davriy ketma-ketlik - xronologik asosda o'rganiladi. Shuningdek, tarixiy voqeа va hodisalar, hujjat va dalillarning haqiqiy va haqiqiy emasligi, ular qachon, qayerda, qanday tarixiy muhit va sharoitlarda tarixan voqe' bo'lgani aniqlanadi. Va nihoyat, bo'lib o'tgan voqeliklarning aniq sabab va oqibatlari, shu bilan birga, ularning aniq shakl-shamoyillari va holati aniqlanadi.

Uchinchidan, O'zbekistonning eng yangi tarixi fani mamlakatimiz yaqin o'tmishidagi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy hayotining ahvoli, holatini o'rganadi, ulardan kelajak uchun saboq va xulosa chiqaradi. Mustaqillikka erishishidagi murakkab siyosiy ahvol tahlil etilgan holda istiqlolning qanchalik ulug' ne'mat ekanligi ko'rsatib beriladi. Bu esa kelajak avlod uchun dasturilamal sifatida xizmat qiladi.

To'rtinchidan, O'zbekistonning eng yangi tarixi fani ko'p qirralik va xilma- xillik xususiyatiga ega. U jamiyat taraqqiyotining va inqirozlarining faqat bir tomoninigina emas, balki jamiyatning hamma tomonlarini uzviy, o'zaro bog'liqlikda, bir butunlikda o'rganadi. O'zbekistonning eng yangi tarixi fani mamlakatning yaqin o'tmishdagi voqeliklari, insoniyat hayoti, jamiyat taraqqiyotini tahlil qiladi. Uning o'rganish predmetiga esa mana shu makondagi jamiki voqelik va jarayonlar, ulardagi umumiy aloqadorlik va yaxlit birlik hamda qonuniyatlar hodisasi va jarayonlar, umuman, xalq va insonning yaratuvchanlik faoliyati kiradi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, butun bir xalqlar, elatlar, millatlar va davlatlarga taalluqli bo'lgan murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixda o'z aksini topadi. Tadqiqotchilarining e'tirof etishlaricha, inson har qanday tarixning predmeti hisoblanadi. Har bir voqeа, hodisa inson (yoki uning bir guruhi - xalq) xatti-harakati, uning ko'zlagan ma'lum maqsadga intilishi jarayonida sodir bo'ladi. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining o'rganish makoni - ob'yekti mamlakatning eng yangi tarixi davri hisoblanadi. Mazkur davr respublika mustaqillikka erishganidan to shu bugungi kunga qadar bo'lgan hayot tarzini qamrab oladi. Tarixiy ob'yekt (makon)ga nisbatan O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining maqsadi, vazifasi, yo'nalishi va harakat (faoliyat) doirasi yoki chegarasi belgilanadi. Ma'lum bir ma'noda ob'yekt bilan predmet bir-biriga juda yaqin tushuncha bo'lsa-da, ular tarix fanida tutgan o'rni va vazifasi bilan farqlanadi.

Ob'yekt aniq tarixiy davr, makon, zamon va geografik mintaqaviy chegaralar, ma'lum bir xalq, millat, mamlakat tarixi bilan bog'liq bo'lib, ma'lum hudud doirasidagi voqeа va hodisalarining bir butun va yaxlitlikda o'z ichiga oladi. Predmet esa mana shu bir butun ob'yekt ichidagi aniq siyosiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan iborat bo'ladi.

O'zbekistonning eng yangi tarixi fani fan sifatida ijtimoiy-siyosiy, umuminsoniy xarakterdagи fan bo'lib, inson va millat o'z o'tmishini bilishi, o'zligini anglashi hamda kelajagini belgilashida asosiy dasturilamal hisoblanadi. Shu bilan birga, u ijtimoiy-siyosiy hayot sohasidagi yagona fan ham emas. Jamiyat, umuman, insoniyat o'tmishini

o'rganuvchi boshqa soha fanlari ham bor. Masalan, arxeologiya, etnologiya, geologiya, antropologiya, demografiya, madaniyat, iqtisodiyot va boshqa fanlar shular jumlasidandir. Ammo boshqa fanlarning hammasi tabiat, jamiyat ham, avvalo, katta tarixda aks etadi. Soha tarixi fanlari ham tarix fanining o'rganish ob'yekti va predmeti hisoblanadi.

Tarix fani boshqa, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan mustahkam va uzviy aloqa birligida rivojlanadi. Shuning uchun ham tarixchilar falsafa, adabiyot, tilshunoslik, dinshunoslik va boshqa fanlarni bilmay turib, haqqoniy tarixni to'la yoritib berolmaydilar.

Shuni ham aytish lozimki, tarix bilan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rganish ob'yekti bitta, ya'ni jamiyat hisoblanadi. Predmeti esa inson va tabiatdir. Shuning uchun ham boshqa fanlar tarix fani taraqqiyotiga, tarixiy haqiqatlarning ro'yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. Shuningdek, tarix fani ham boshqa soha fanlari rivojiga katta ta'sir etadi. Bundan tashqari tarix boshqa fanlarni, shuningdek, ijtimoiy-gumanitar fanlarning ham tarixidir. Chunki boshqa fanlarning hammasi ham tarix mahsulidir.

Muxtasar qilib aytganda, tarix fani, ya'ni Vatan tarixi - millat va Vatan kelajagining ravnaq topishida muhim ahamiyatga ega. Masalaning mohiyati shundaki, birinchidan, ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishi har jihatdan tarix fanining naqadar haqqoniy bo'lishiga bog'liqdir. Chunki ular tarix bilan bevosita bog'liq. Ikkinchidan, tarix falsafasi qanchalik to'la va ravon tarzda yuzaga chiqsa, boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning mazmun va mohiyati hamda ta'sirchanligi ham shuncha yuksak darajada bo'ladi.

Tarix falsafasi deganda, tarix, ya'ni o'tmish tajribasi va sabog'idan to'g'ri xulosa chiqara olish tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, o'tmish-tarixga qarab, keljakni his etish, ko'ra bilish va to'g'ri belgilay olish ham tarix falsafasini anglashni bildiradi.

Tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, insonning shaxsiy manfaat va ehtiyojlari, qolaversa, uning qobiliyati, iste'dodi, voqelikni teran idrok etishi tarix falsafasini anglab yetishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, inson aql-idroki, uning tafakkur darajasi, hayotiy falsafasi, jamiyat taraqqiyoti yo'lidagi barcha sa'y-harakatlari hamda intilishlari ma'lum millat va jamiyat mentalitetini belgilab beradi. Mana shu mentalitet millat yoki xalqning umummadaniy-ma'naviy darajasi, aql-idroki va tafakkur maydonining salohiyatiga qarab o'ziga xos mazmun-mohiyat kasb etadi. Tarix esa ana shu murakkab, ziddiyatli, shu bilan birga, qudratli ruhiyat va faoliyat orqali xotiraga aylanadi. Bu holat tarix falsafasini o'zida ifoda etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toshev S. (2020). TARIX FANINI O'QITISHNDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. Science and Education, 1(Special Issue), 6

2. JI Suyundikovich. (2020). TARIXNI O'QITISH METODIKASI RIVOJLANISHI TARIXIDAN. Fan va ta'lim, 1 (5), 195.
3. Ahmadjanov D.B. (2020). Ozbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimining rivojlanishdagi xususiyatlari. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. 8. 104-109
4. G'afforov Ya.X. Valus-is the history of the nation. International Journal of Academic and Applied Research (IJAAAR) 2021. 62-64p.
5. Shohsanam Sulaymonova.(2021). ШАРОФ РАШИДОВНИНГ СИЁСИЙ ЗАКОСИ ВА РАХБАРЛИК ФАОЛИЯТИ. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES.2(2).829-834
6. Shohsanam Sulaymonova.(2021). SHAROF RASHIDOVNING O'ZBEKISTON TA'LIM, FAN, MADANIYATI TARAQQIYOTIDAGI HIZMATLARI. Sohibqiron yulduzi. 1. 74-78